

**SUD-HUQUQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR
TAJRIBASI VA ULARNI O'ZBEKISTONGA TADBIQ ETISH USTUVOR
YO'NALISHLARI**

To'g'izboyev Shohjahon Jasur o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi.

+998996876878. Email: tugizboyevshohjahon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13941986>

Annotatsiya. Hozirgi davrda yurtimizda qonunchilik va sud-huquq tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada sud huquq tizimini isloh qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularni mamlakatimizda tadbir etishning keng istiqbollari keng yoritib berilgan. Misol sifatida Yaqin sharq mamlakatlari xususan Birlashgan Arab Amirliklari sud-huquq tizimi va Germaniya Federativ Respublikasining sud-huquq tizimi haqida malumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda ushbu sohani takomillashtirishda amalga oshirilayotgan islohotlar atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sanksiya, sud, huquq, federativ davlat, demokratiya, fuqarolik jamiyati.

**EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN IMPROVING THE JUDICIAL
SYSTEM AND PRIORITY DIRECTIONS OF THEIR APPLICATION TO
UZBEKISTAN**

Abstract. At present, measures aimed at the development of legislation and judicial system are being actively implemented in our country. In this article, the experience of foreign countries in reforming the judicial system and the broad prospects of their implementation in our country are widely covered. As an example, information was given about the legal system of the Middle East countries, in particular the United Arab Emirates and the legal system of the Federal Republic of Germany. In addition, the reforms implemented in our country for the improvement of this sector are covered in detail.

Key words: sanction, court, law, federal state, democracy, civil society.

**ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СУДЕБНОЙ
СИСТЕМЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В
УЗБЕКИСТАНЕ**

Аннотация. В настоящее время в нашей стране активно реализуются меры, направленные на развитие законодательства и судебной системы. В данной статье широко освещается опыт зарубежных стран по реформированию судебной системы и широкие перспективы их реализации в нашей стране. В качестве примера была дана информация о правовой системе стран Ближнего Востока, в частности Объединенных Арабских Эмиратов и правовой системе Федеративной Республики Германии. Кроме того, подробно освещены реформы, проводимые в нашей стране для улучшения этого сектора.

Ключевые слова: санкция, суд, закон, федеративное государство, демократия, гражданское общество.

Barchamizga ma'lumki. Oxirgi yillarda yurtimizda har tomonlama chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning boshlang'ich asosi 2017-2021 yillarga mo'ljallangan

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi bo'ldi. Unda belgilab o'tilgan ustuvor yo'nalishlardan andoza olgan holda barcha soha va yo'nalishlarda keng ko'lamli yangiliklar amalga oshirildi. Bundan ko'zlangan bosh maqsad birinchi navbatda, yurtimizda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo qilish va mamlakatni jahon miqyosiga olib chiqishdir. Bu yo'lda qabul qilingan har bir normativ-huquqiy hujjat bu islohotlarni to'ldirib, takomillashtirib bordi. Ularning har birida fuqarolarning huquq va erkinliklari oldingi planda qo'yilib ularning manfaatlari uchun xizmat qilishi ta'minlanmoqda. Endi esa bir narsani o'ylab ko'raylik, jahonning rivojlangan davlatlarida ham sud-huquq tizimining juda ham taraqqiy etgan ko'rinishlaridan foydalaniladi.

Har bir davlat albatta bu tizimni o'zining hududi, aholisi, diniy qarashlari, tarixan rivojlanish bosqichlarini inobatga olgan holda joriy etadi. Ularning o'ziga xos jihatlari nimada?

Ularning muvaffaqiyati nimaga asoslanadi? Ularni bizning milliy huquq tizimimizda joriy etishda qanday yutuqlarga erishishimiz mumkin? Quyida mazkur savollarni xorijiy mamlakatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Birinchi navbatda nafaqat Yaqin sharqda, balki dunyoda o'z mavqeyiga ega bo'lgan Birlashgan Arab Amirligiga to'xtalib o'tsak. O'zining dunyodagi eng qattiqqo'l qonunlari bilan dong taratgan ushbu mamlakatdagi sud huquq tizimi musulmon huquq tizimiga asoslangan.¹[1]

Birlashgan Arab Amirliklaridagi sudlar konstitutsiyaviy jihatdan Federal Adliya vazirligi tomonidan nazorat qilinadigan Federal sudga bo'lingan va hozirda faqat Dubay va Ras-al-Xayma amirliklarida mavjud bo'lgan va ushbu amirliklarda sud hokimiyati tomonidan nazorat qilinadigan mahalliy sud mavjud.²[2] Lekin shuni ham aytish joizki har bir mamlakatda o'rnatilgan sud-huquq tizimi va undagi normalar mahalliy aholi manfaatlarini ko'zlangan bo'lish kerak. O'ta qattiqqo'l qonunlar va ularni buzganlik uchun belgilangan sanksiyalarga qaramasdan amirliklarga, xususan, uning markaziy shaharlariga kirib kelayotgan sayyohlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Buning asosiy sababi sanksiyalarda ekanligi ko'rinish turadi. Mamlakatda fuqarolarning umuman barcha shaxslar uchun o'zaro munosabatlar shu darajada ikir chikirigacha tartibga solinganki, ularning orasida hatto ayollar bilan qo'berib so'rashish yoki jamoat joyida qo'l ushlab yurishgacha ta'qiqlangan bo'lib ularni buzganlik uchun juda og'ir jazolar mavjud. Yana, suratga tushish, jamoat joyida ovqatlanish, o'zini tutish, avtomobilda harakatlanish borasida shunday cheklovlar o'rnatilganki, hatto fuqarolar ularni buzib ko'rishga qo'rqishadi.³[3]

Endi o'ylab ko'radigan bo'lsak, eng oddiy huquqbuzarliklar uchun shunday jazolar belgilan mamlakatda, inson joniga qasd qilish, korrupsiya, davlatga qarshi jinoyatlarga qanday jazolar belgilangan bo'lishi mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki davlatda o'rnatilgan sud huquq tizimini ishlab chiqishda diniy normalar asos qilib olinganligi yaqqol ko'rinish turibdi. To'g'ri yuqoridagilarni barchasi sanksiyalarga borib tarqaladi. Lekin aynan shu orqali ularning faoliyatining soatday bexato ishlaydigan mexanizmi yaratilgan. Har qanday jinoyatga qarshi murosasiz kayfiyat, har qanday huquqbuzarlikni darhol bartaraf etish, qonunlarning ustuvorligini so'zsiz ta'minlash ular faoliyatining asosiy prinsiplari sirasiga kiradi. . Bir qarashda bunday tartib eski feodal zamon qonunchiligi, yoki inson huquqlarini poymol qilishdek ko'rinadi. Xususan

¹ https://www.goodfellowpublishers.com/free_files/Chapter%203-be26e259730cc91eabac019f4c930c7b.pdf Zeenat Beebeejaun The UAE Legal System

² <https://www.mydubailawyer.com/uae-legal-system/>

³ “Суровые законы ОАЭ”-Dubai: “Walton Consultants” -2019

“Novate” nashriyoti maqolalaridan birida “Mamlakatda hech qanday demokratiya unsurlari yo’q, barcha qonunlar zo’rlilik va qiynoqqa asoslangan. Bu bilan bugungi jamiyatda hech qanday natijaga erishib bo’lmaydi” kabi so’zlar yangragan edi.⁴[4] Ma’lumki, so’nggi yillarda yurtimizda jinoiy jazolarni liberallashtirish chora-tadbirlari qo’llanmoqda. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad inson manfaatlarini. Odil sudlov qachonki chinakam mustaqil sud hokimiyati tomonidan amalga oshirilsa, inson qadr-qimmatini ta’minlanadi, adolat va qonun ustuvorligi qaror topadi. Shu ma’noda, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridandir. Gap shu haqda ketganida, Prezidentimiz Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan marosimdagi ma’ruzasida ilgari surgan tashabbuslar yodga tushadi. “Sud hokimiyatining mustaqilligi to’g’risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlash oldimizga qo’ygan maqsadlarga erishishning muhim kafolatidir. Sudlarda ishlarni ko’rish sifatini oshirish, ayniqsa, fuqarolik ishlarida ovora bo’lib yurishlarning oldini olish, aynan bir instansiya sudida ishni bir necha marotaba ko’rib turli qarorlar qabul qilish amaliyotiga chek qo’yish vaqti keldi”, degan edi davlatimiz rahbari.⁵[5] Odil sudlovni amalga oshirishdagi eng asosiy muammo sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta’minlash, sud ishlarida adolatli qaror qabul qilishga qodir bo’lgan, yuksak malakali, halol va pok vijdonli sud xodimlarini korpusini shakllantirish, sudlarda ishlarni ko’rish sifatini yanada oshirish bilan bog’liqdir. Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bir shaxsning jinoyati ikkinchi shaxsning yoki shaxslarning huquq va manfaatlarini buzilishiga olib keladi. Qonunchilikda shunday tartib o’rnatilishi kerakki, ikkala tomon ham zarar ko’rmasligi kerak. Og’ir sanksiyalar bilan tahdid qilish esa huquqbuzarlik sodir qilish niyatida bo’lgan shaxsning fikrini mutlaqo o’zgartirib yuborishi mumkin.

Tasavvur qilib ko’raylik, kimningdir joniga suiqasd qilmoqchi bo’lgan shaxs buning uchun o’zi ham o’lim jazosiga tortilishi mumkinligi o’ylab ko’rsa, albatta bundan o’zini tiyadi.

Bu jazo turi jahonning AQSH, Xitoy, Eron kabi rivojlangan va o’ziga xos davlatlarida amalda. Huquq avvalo inson manfaatlarini himoya qilar ekan, inson manfaatlarini boshqa inson tomonidan poymol qilinmasligi kerak. Keyin mana shu qonunlarda belgilangan ta’qiq va cheklovlarni fuqarolarga yetkazish mexanizmini ham takomillashtirish kerak. So’nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralari kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta’minlash hamda sudyalarning hamjamiyati rolini oshirish bo’yicha izchil ishlar olib borilmoqda.⁶[6] Amalga oshirilgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi.

Sloveniya sobiq adliya vaziri **Goran Klimenchich** O’zbekiston sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan o’zgarishlarni ijobiy baholagan⁷[7]. U sud qarorlarini e’lon qilish tartibini

⁴ “Страна строгости и роскоши” – “Novate”-2020

⁵ <https://yuz.uz/uz/news/adolat-va-qonun-ustuvorligi--inson-qadr-qimmatini-taminlashning-eng-asosiy-sharti>

⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-4910826?ONDATE=27.05.2022> Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida

⁷ Judicial reforms in Uzbekistan in the focus of foreign experts” (*Ўзбекистондаги суд-ҳуқуқ ислохотлари хорижий экспертлар низоҳида*), July 28, 2021. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistondagi-sud-huquq-islohotlari-xorizhiy-ekspertlar-nigohida_288055

ijobiy ta'kidlab o'tgab va bu tartib nizo taraflarining shaxsiy ma'lumotlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash yo'li bilan amalga oshirilishi kerak, degan fikrni bildirgan. **Jon Tanxaym** – Minnesota shtati (AQSh) federal sudining sobiq sudyasi so'nggi besh yilda sudlar va sudyalar mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan sud-huquq islohotlari haqida ijobiy fikrlari bilan o'rtoqlashdi va O'zbekistonning bunday sa'y-harakatlari uni Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari orasida yetakchi o'ringa qo'ymoqda degan fikrni ilgari surgan⁸[8]. Shu o'rinda Yevropa davlatlarining sud-huquq tizimi aytib o'tish joiz. U yerda o'zining qat'iy qonunlarga ega, qattiqqo'l va intizomli davlat sifatida Germaniya Federativ Respublikasi namoyon bo'lmoqda.

Shuni aytish lozimki, Germaniya fuqarolarining qonunlarga itoat etishi va intizomi bilan g'ururlansa arziydi. Chunki, buni samarali yo'lga qo'ya olgan davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimiga ega. Ushbu davlatning huquq tizimi "roman-german" huquq tizimiga asoslangan.

Germaniya fuqarolari uchun sud o'ziga xos organ bo'lib, u fuqarolarning huquq va manfaatlarining haqiqiy himoyachisi va adolatning asl timsoli hisoblanadi. Nima bo'lgan taqdirda ham Germaniyadagi sud tizimi dunyodagi mustaqil davlatlar orasida sud tizimi eng yaxshi tashkil etilgan 15ta davlat sirasiga kiradi. Germaniya sud tizimi quyidagilarga bo'linadi: konstitutsiyaviy sudlar, umumiy sudlar (fuqarolik va jinoyat ishlari sudlarini o'z ichiga oladi), ma'muriy sudlar, mehnat sudlari, ijtimoiy sudlar, moliyaviy sudlar.⁹[9] Bularning barchasi shtat sudlari bo'lib, ular da'volar birinchi instantsiyada qo'zg'atiladigan yagona sudlardir.¹⁰[10] Aynan mana shu jihat, ya'ni Germaniyada tashkil etilgan murakkab tarmoqli va ixtisoslashtirilgan sudlar tizimi uning bugungi mavqei garovi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu davlatning sud tizimidan kelib chiqib, O'zbekistonda sud tarmoqlarini kengaytirish va ixtisoslashtirish hamda ishni ko'ri chiqayotgan sudya va uning maslahatchilarining mavqeyi hamda professional bilimiga qo'yiladigan talablar yanada oshirishni tadbiq etishimiz mumkin. Mazkur islohotlar samarasida fuqarolarning sud-huquq tizimiga ishonchi ortib borishi shubhasiz. Nemis siyosatchisi Xorst Zeehofer ta'kidlaganidek: "Davlat xizmatchilariga fuqarolarning munosabatlari har doim muhim masala hisoblanadi".¹¹[11] Xurmatga ongli ravishda erishish murakkab bo'lgan vaziyatda majburlash chorasini ko'rish maqsadga muvofiq. Germaniyadagi kabi qonunlarga hurmat hissini yurtimizda ham fuqarolar ongiga singdira olsak, kelajak avlod, albatta yuqori darajada rivojlangan davlatning fuqarolari bo'la oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bitta davlatning sud huquq tizimi o'ziga yarasha kamchilik va yutuqlarga ega. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda, qonun ustivorligi g'oyasini hayotga tadbiq etishni ta'minlovchi asosiy mexanizm bo'lmish sud-huquq tizimini shakllantirish va takomillashtirish O'zbekistonda davlat tomonidan olib borilayotgan huquqiy siyosatning tamal toshi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan ushbu jarayonlar Prezidentimizning tashabbusi bilan bosqichma-

⁸ "Judicial reforms in Uzbekistan in the focus of foreign experts" (Ўзбекистондаги суд-ҳуқуқ ислохотлари хорижий экспертлар нигоҳида), July 28, 2021. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistondagi-sud-huquq-islohotlari-xorizhiy-ekspertlar-nigohida_288055

⁹ Grundgesetz-GFR konstitutsiyasi. 92-93-moddalar https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html

¹⁰ https://repository.uchastings.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1611&context=hastings_law_journal

¹¹ <https://www.bayern.de/staatsregierung/ministerpraesidenten-und-kabinette-seit-1945/horst-seehofer/>

bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin ifodasidir. Sud va sudyalimizning mustaqilligini ta'minlash ushbu sohadagi islohotlarning bosh tamoyili bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana bir narsani aytish lozimki, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mamlakatda joriy qilish istiqbollari o'rganishdan asosiy maqsad dunyodagi rivojlangan davlatlarning sud-huquq tizimidan andoza olgan holda ularni amaliyotga tadbiq etish va kuchli demokratik fuqarolik jamiyatini qurish hisoblanadi. Ammo, bu tajribalarni milliy sud-huquq tizimiga joriy qilisha mamlakatning rivojlanish darajasi va aholining mentalitetidan kelib chiqib yondashish zarur.

REFERENCES

1. https://www.goodfellowpublishers.com/free_files/Chapter%203-be26e259730cc91eabac019f4c930c7b.pdf Zeenat Beebeejaun The UAE Legal System
2. <https://www.mydubailawyer.com/uae-legal-system/>
3. “Суровые законы ОАЭ”-Dubai: “Walton Consultants” -2019
4. “Страна строгости и роскоши” – “Novate”-2020
5. <https://yuz.uz/uz/news/adolat-va-qonun-ustuvorligi--inson-qadr-qimmatini-taminlashning-eng-asosiy-sharti>
6. <https://lex.uz/ru/docs/-4910826?ONDATE=27.05.2022> Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
7. Judicial reforms in Uzbekistan in the focus of foreign experts” (*Ўзбекистондаги суд-ҳуқуқ ислохотлари хорижий экспертлар нигоҳида*), July 28, 2021. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistondagi-sud-huquq-islohotlari-xorizhiy-ekspertlar-nigohida_288055
8. Grundgesetz-GFR konstitutsiyasi. 92-93-moddalar https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html
9. ¹ https://repository.uchastings.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1611&context=hastings_law_journal
10. <https://www.bayern.de/staatsregierung/ministerpraesidenten-und-kabinette-seit-1945/horst-seehofer/>